

O‘zbekiston Respublikasi  
Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi

*60811800-Mevachilik va uzumchilik  
bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari*

Toshkent



## **ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:**

- Toshkent davlat agrar universiteti;

## **TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Oliy va o‘rta maxsus, professional ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiglashtiruvchi kengashning 2021 yil «34» 08 dagi 4 - sonli yig‘ilishida ma’qullangan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021 yil «25» 08 dagi 365 - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

## **JORIY ETILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy malaka ramkasiga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy xujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

T/r		bet
1.	<i>60811800-Mevachilik va uzumchilik bakalavriat ta’lim yo‘nalishining umumiyl tavsifi</i>	4
1.1	Qo‘llanish sohasi .....	4
1.1.1	<i>60811800-Mevachilik va uzumchilik ta’lim yo‘nalishi Malaka talabining qo‘llanilishi.....</i>	4
1.1.2	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilar.....	4
1.2	<i>60811800-Mevachilik va uzumchilik ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining tavsifi .....</i>	4
1.2.1	<i>60811800-Mevachilik va uzumchilik ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatining sohalari.....</i>	4
1.2.2	<i>60811800-Mevachilik va uzumchilik ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining ob’ektlari.....</i>	4
1.2.3	<i>60811800-Mevachilik va uzumchilik ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining turlari.....</i>	5
1.2.4	<i>60811800-Mevachilik va uzumchilik ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrularning kasbiy vazifalari.....</i>	5
2.	<i>60811800-Mevachilik va uzumchilik ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrularning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.....</i>	6
2.1	Umumiyl kompetensiyalar.....	6
2.2	Kasbiy kompetensiyalar.....	7
	Bibliografik ma’lumotlar.....	8
	Kelishuv varog‘i.....	9

## **1. 60811800 – Mevachilik va uzumchilik bakalavriat ta’lim yo‘nalishining umumiyl tavsifi**

**60811800 – Mevachilik va uzumchilik** ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular tayyorlash kunduzgi, kechki va sirtqi ta’lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta’lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modulb tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining me’yoriy muddati 4 yil.

### **1.1. Qo‘llanish sohasi.**

#### **1.1.1. 60811800 – Mevachilik va uzumchilik ta’lim yo‘nalishi Malaka talabining qo‘llanilishi.**

Malaka talabi 60811800 – Mevachilik va uzumchilik ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular tayyorlovchi barcha oliy ta’lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

- mazkur ta’lim yo‘nalish bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas’ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilar;

- ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasi va fan dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta’lim tashkilotining talabalari;

- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalar;

- ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta’lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;

- oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

#### **1.2. 60811800 – Mevachilik va uzumchilik ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining tavsifi.**

##### **1.2.1. 60811800 – Mevachilik va uzumchilik ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatining sohalari.**

60811800 – Mevachilik va uzumchilik ta’lim yo‘nalishi – “Qishloq xo‘jaligi” ta’lim sohasiga oid yo‘nalish bo‘lib er, suv, energetik va moddiy-texnika resurslaridan samarali foydalanishni oshirish maqsadida meva va uzum maxsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishslash sanoati uchun xom- ashyo tayyorlash;

- mevachilik va uzumchilik ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish;

- meva va uzum mahsulotlari hosildorligi va sifatini oshirish, kasbiy faoliyatida texnik vositalardan oqilona foydalanish usul va uslublari yig‘indisini o‘z ichiga oladi.

##### **1.2.2. 60811800 – Mevachilik va uzumchilik ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining ob’ektlari:**

- davlat va nodavlat tashkilot, korxona va muassasalar, kompaniyalar (agrofirmalar), klasterlar, kooperatsiyalar, ishlab chiqarish birlashmalari va boshqalar;

- er, suv, energetik va moddiy – texnika resurslari, meva ekinlari va uzum; kimyoviy va biologik vositalar; texnik asbob uskunalar; qishloq xo‘jaligi texnikalari; agrotexnik tadbirlar;

- mevachilik va uzumchilikda qo‘llaniladigan ishlab chiqarish jarayonlari;

- ilmiy tadqiqot jarayonlari;

- mevachilik va uzumchilik korxonalari va tashkilotlarining boshqaruv tizimlari;

– bajarayotgan faoliyati bo‘yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholash.

*60811800 – Mevachilik va uzumchilik ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavriat bitiruvchilari pedagogik qayta tayyorlashdan o‘tgandan keyin, professional ta’lim muassasalarida ta’limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o‘qitish bo‘yicha pedagogik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqiga ega bo‘ladi. Bakalavriatning kasb ta’limi yo‘nalishlari bundan mustasno.*

### **1.2.3. 60811800 – Mevachilik va uzumchilik ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining turlari**

- tashkiliy-boshqaruv;
- ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish;
- axborot-tahiliy faoliyat;
- ilmiy-tadqiqot faoliyati;
- tadbirdorlik.

### **1.2.4. 60811800-Mevachilik va uzumchilik ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrлarning kasbiy vazifalari.**

*60811800-Mevachilik va uzumchilik ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob’ektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bolishi lozim:*

#### **Tashkiliy-boshqaruv hamda ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish faoliyatida:**

- mevachilik va uzumchilikda tegishli texnologiya va texnik vositalardan foydalanish samaradorligi ko‘rsatkichlarini hisobga olish va baholash;
- ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan moddiy va mehnat resurslarini rejalashtirish;
- ishlab chiqarish jarayonini boshqarish;
- boshqaruv qarorni qabul qilish;
- zamonaviy axborot texnologiyalari tizimlaridan foydalanishni hisobga olgan holda ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish va hayot faoliyati xavfsizligi, texnika xavfsizligi talablari asosida mevachilik va uzumchilikda ishlab chiqarish jarayonlari monitoringini amalga oshirish;
- kasbiy muammolar echimini topish;
- ijrochi jamoa ishini tashkil qilish;
- fikrlar xilma-xilligi sharoitida boshqaruv qarorini qabul qilish;
- birlamchi ishlab chiqarish bo‘g‘ini ishini tashkil qila olish va boshqarish;
- bajarayotgan faoliyati bo‘yicha ish rejasini tuzish, bajarish va nazorat qilish hamda ish natijalarini baholash;
- meva va uzum etishtirish va hosilini yig‘ishtirishda texnologik kartadan foydalanish;
- mevachilik va uzumchilik sohasida samarali va resurs tejamkor faoliyatni tashkil eta olish;
- meva va uzum etishtirish va hosilini yig‘ib olish bo‘yicha ishlab chiqarish jarayonlari, zamonaviy agrotexnik tadbirlarning bajarilish sifatini nazorat qilish;
- zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuter texnikalari va kommunikatsion vositalarni amaliyotda keng qo‘llash;
- ilg‘or innovatsion texnologik jarayonlarni qo‘llash;
- ilmiy asoslangan tizimlarni qo‘llash va tavsiya qilish;
- yangi samarali texnologiyalarni ishlab chiqish va oqilona foydalanish;
- tabiiy resurslarni muhofaza qilish va hayot faoliyati xafsizligi qoidalariga rioya qilish;
- xizmat ko‘rsatish sohasi meъyoriy- huquqiy hujjatlaridan foydalana olish;
- mevachilik va uzumchilik sohasida servis xizmati ko‘rsata olish.

### **Axborot-tahliliy faoliyatida:**

- axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, o'z kasbiy faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;
- boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tashkilotning tashqi va ichki muhiti omillari to'g'risidagi ma'lumotlarni toplash, qayta ishlash va tahlil qilish;
- qaror qabul qilish, faoliyatni rejalashtirish va boshqarish uchun ma'lumot toplash, tashkilotning ichki axborot tizimini yaratish va uning ishlashini boshqarish;
- tashkilotning ichki hujjat aylanishi tizimini ishlab chiqish va boshqarish, tashkilotlar faoliyatining turli ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlar bazasini yuritish;
- loyihibar samaradorligini baholash;
- axborot-tahlil faoliyati natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash;
- boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash.

### **Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

- ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarda tarmoqlar va sohalarni zamonaviy boshqarish usullari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda qatnashish;
- xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni zamonaviy boshqarish tizimini ta'minlashga bag'ishlangan mamlakatdagi va xorijiy davlatlardagi fan-teknika yutuqlari, maxsus adabiyotlar va boshqa ilmiy-tehnik axborotlarni o'rGANISH va tizimlashtirish;
- tarmoqlar va sohalarni zamonaviy boshqarish tizimini ta'minlash borasidagi muammoli mavzular bo'yicha iqtisodiy axborotlarni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish va tizimlashtirish ishlarini amalga oshirish;
- internet tarmog'ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;
- ilmiy tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;
- tadqiqot natijalari va ishlanmalarni tatbiq etish.

### **Tadbirkorlik faoliyatida:**

- yangi biznes-loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish;
- biznesni tashkil etish, biznes-rejalarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

## **2. 60811800-Mevachilik va uzumchilik ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar**

### **2.1. Umumiy kompetensiyalar:**

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;
- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;
- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida tassavvurga ega bo'lish.

### **2.2. Kasbiy kompetensiyalar:**

- me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, kadrlarni boshqarish strategiyasini qo'llash, tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- muzokaralar, uchrashuvlar, ishbilarmonlik yozishmalarini olib borish va onlayn aloqalarni amalga oshirishni bilish;

- strategik tahlil qilish, raqobatdoshlikni ta'minlashga qaratilgan tashkilot strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- meva va uzum etishtirish va hosilini yig'ishtirishda texnologik kartadan foydalanish;
- mevachilik va uzumchilik sohasida samarali va resurs tejamkor faoliyatni tashkil eta olish;
- meva va uzum etishtirish va hosilini yig'ib olish bo'yicha ishlab chiqarish jarayonlari, zamonaviy agrotexnik tadbirlarning bajarilish sifatini nazorat qilish;
- zamonaviy axborot texnologiyalari, komp'yuter texnikalari va kommunikatsion vositalarni amaliyotda keng qo'llash;
- ilg'or innovatsion texnologik jarayonlarni qo'llash;
- ilmiy asoslangan tizimlarni qo'llash va tavsiya qilish;
- yangi samarali texnologiyalarni ishlab chiqish va oqilona foydalanish;
- tabiiy resursslarni muhofaza qilish va hayot faoliyati xafsizligi qoidalariga rioya qilish.

## Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---

### Tayanch so'zlar:

Mevachilik, uzumchilik, intensiv mevachilik, bog'dorchilik, nav, tur, ko'chatchilik, payvandtag, payvandust, payvandlash, daraxt, shox-shabba, novda, barg, shakl berish, butash, sug'orish, o'g'itlash, meva, hosil, kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o'quv rejasi va fan dasturi, o'quv jarayoni, loyiha-texnologik, pedagogik, ilmiy-izlanish, servis xizmati, baholash, sifat nazorati, mustaqil ta'lim, texnologik ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv, malaka amaliyoti, diplom ishi, davlat atestatsiyasi, mustaqil ta'lim, o'quv fanlari bloki, mundarija, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy-tadqiqot jarayonlari.

## KELISHUV VARAG'I

### ISHLAB CHIQILGAN:

Toshkent davlat agrar universiteti

Rektor  B.Sulaymonov

2021 yil « 19 » 08



### KELISHILGAN:

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi  
huzuridagi Oliy ta'limini rivojlantirish  
tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarini tafbiq

Direktor y.h.  M.Esonov  
2021 yil « 19 » 08  
M.O.


O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi  
vazirining iqtisod, innovatsion rivojlanish  
va investitsiyalar masalalari bo'yicha  
maslahatchisi

Boshliq  A.Shukurov  
2021 yil « 20 » 08  
M.O.

Akademik M.Mirzayev nomidagi  
Bog'dorechilik, uzumchilik va  
vinochchilik ilmiy-tadqiqot  
instituti

Direktor  U.Abdug'aniyev  
2021 yil « 19 » 08  
M.O.

Andijon qishloq xo'jaligi va  
agrotexnologiyalar instituti

Rektor  K.Komilov  
2021 yil « 19 » 08  
M.O.